

Matematika

IV qism

2



UO'K: 51(075.3)
KBK 22.1ya72
R 42

Repyova I.V.
Matematika. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 2-sinfi uchun darslik,
IV qism / I.V.Repyova. – Toshkent: "Novda Edutainment". 2023. – 84 b.

Taqrizchilar:

- N. M. Usmanova –** MMTV tasarrufidagi PMTIDUMning oliy toifali boshlang'ich sinf o'qituvchisi;
- O. Sh. Yevstavyeva –** MMTV tasarrufidagi PMTIDUMning 1-toifali boshlang'ich sinf o'qituvchisi.

Shartli belgilar:



**Og'zaki
topshiriq**



**Daftarda
ishlang**



**Mantiqiy
topshiriq**



**Juft bo'lib
ishlang**



Uyga vazifa

Eslatma: O'lchov birliklaridan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasida kattalik birliklarini qo'llash to'g'risida"gi 10.01.2018-yil 21-sonli qaroriga muvofiq foydalanildi.

Salom, aziz bolajonlar!

Biz to'rtinchi qismda katta sonlar va yirik kattaliklar bilan ishlashga o'tamiz. Turli: juda kattadan to juda kichikkacha bo'lgan narsalarning uzunliklarini o'lchashni o'rganamiz. Yangi geometrik shakllar: aylana, doiralarni va ularning xossalarni o'rganamiz. Kub va kuboidning hajmini qanday topishni bilib olamiz. Siz matematik topshiriqlarda sog'lom turmush tarzi qoidalari bilan duch kelasiz. Jonajon o'lkangiz haqida ko'plab ma'lumotlarga ega bo'lasiz. Vataningiz – O'zbekistonning ajoyib joylari, an'analari va urf-odatlari bilan tanishasiz.



117. Ko'paytirish xossalari

Yondosh mavzu:
mehmondo'stlik.

Ko'paytuvchi, ko'paytma.



1. Rasmda nechta anor va olma tasvirlangan?
Ifoda tuzing. Ularda qanday umumiylik bor? Ular nimasi bilan farq qiladi?



Ko'paytirishning o'rin almashtirish xossasi

Ko'paytuvchilarning o'rinlari almashinishi bilan natija o'zgarmaydi.

$$a \cdot b = b \cdot a$$

2. Qulay usul bilan hisoblang. Ko'paytirishning o'rin almashtirish xossasidan foydalaning.

$3 \cdot 60$

$2 \cdot 80$

$6 \cdot 10$

$70 \cdot 3$

$3 \cdot 40$

3. Bir to'plamda 6 ta finjon bor. Bir qutida 5 ta finjonlar to'plami bor. Ikkita qutida jami nechta finjon bo'ladi?

4. Navro'z munosabati bilan mahallada bayram dasturxonini yozildi.



a) Bitta stolga nechta likopcha qo'yilgan? 5 ta stolga nechta likopcha qo'yilgan? $(2 \cdot 4) \cdot 5$ ifoda nimani anglatadi?

b) 5 ta stolga nechta yashil likopcha qo'yilgan? 5 ta stolga nechta ko'k likopcha qo'yilgan? $2 \cdot (4 \cdot 5)$ ifoda nimani anglatadi?

5. Namuna bo'yicha yozing va hisoblang.

Namuna: $(7 \cdot 2) \cdot 5 = 7 \cdot (2 \cdot 5) = 7 \cdot 10 = 70$

$(6 \cdot 2) \cdot 5$ $5 \cdot (8 \cdot 2)$ $(4 \cdot 5) \cdot 2$ $5 \cdot (2 \cdot 7)$

6. Har bir stolda:

4 likopcha yeryong'oq

2 likopcha bodom

4 likopcha yong'oq

? xandonpista

3 ta stol,
42 ta likopcha

7. Misollarni yeching.

$$2 \cdot 40$$

$$7 \cdot 10$$

$$(3 \cdot 5) \cdot 2$$

$$3 \cdot 50$$

$$2 \cdot 100$$

$$(4 \cdot 2) \cdot 5$$

8. Tenglamalar tuzing va ularni yeching.

a) x sonini 3 ga bo'lishdi va 9 ga ega bo'lishdi.

b) y sonini 9 ga ko'paytirishdi va 54 ga ega bo'lishdi.

d) z sonini 23 va 14 sonlari yig'indisiga qo'shishdi va 51 ga ega bo'lishdi.

118. Ko'paytirish xossalari

Yondosh mavzu:
o'lkamning madaniyati.

Ko'paytuvchi, ko'paytma.



1. Amir Temur muzeyiga boshlang'ich sinf o'quvchilari uch guruhga bo'linib borishdi. Har bir guruh uchun 5 ta avtobus keldi, har bir avtobusga ikkitadan sinf joylashdi. Muzeyga nechta sinf borgan?



2. Ko'paytirishning ma'lum xossalariidan foydalanib hisoblang.

$$\begin{array}{cccc} 2 \cdot 4 \cdot 5 & 5 \cdot 2 \cdot 4 & 2 \cdot 3 \cdot 2 \cdot 5 & 3 \cdot 5 \cdot 2 \cdot 2 \\ 3 \cdot 3 \cdot 2 & 4 \cdot 6 \cdot 2 & 3 \cdot 4 \cdot 2 \cdot 2 & 5 \cdot 2 \cdot 2 \cdot 4 \end{array}$$

3. Sxema bo'yicha masala tuzing. Unga doir ifoda tuzing va ifodaning qiymatini hisoblang.

Jonajon o'lka haqidagi bilimlar tanlovi.

7 kishi +
sardor




Har bir jamoada teng miqdorda ishtirokchi bor. Tanlovda necha nafar ishtirokchi qatnashgan?



4. Diagrammada 5 yil ichida tumanda nechta yangi bino qurilganligi ko'rsatilgan. Savollarga javob bering:

1. Qaysi yili hammasidan ko'p bino qurilgan?
2. 2018-yilda nechta bino qurilgan?
3. 5 yil ichida hammasi bo'lib nechta bino qurilgan?



5. Mos ifodani tanlang.

Kinoteatrda a nafar o'g'il bola va b nafar qiz bola 3 ta qatorni to'liq band qilishdi. Har bir qatorda nechta nafar bola o'tirgan?



6. Hisoblang.

$$81 \text{ cm} : 9$$

$$5 \text{ dm} \cdot 4$$

$$16 \text{ cm} + 12 \text{ cm}$$

$$41 \text{ l} - 29 \text{ l}$$

$$52 \text{ cm} + 48 \text{ cm}$$

$$30 \text{ dm} : 6$$



7. "O'lkamiz madaniyati" mavzusida o'tkazilgan tanlovda uchta jamoa ishtirok etdi. Birinchi jamoa 16 ta, ikkinchi jamoa birinchiga nisbatan 1 ta kam, uchinchi jamoa esa ikkinchiga nisbatan uch marta kam tarixiy yodgorliklar nomini ayta oldi. O'quvchilar hammasi bo'lib nechta tarixiy yodgorliklar nomini ayta olganlar? Siz O'zbekistonning tarixiy yodgorliklari nomini ayta olasizmi?

Yondosh mavzu:
o'lkam tabiati.

Ko'paytuvchi,
ko'paytma, nol.



1. Masalalarga doir ifodalar tuzing.

- a) Buxoro bug'ularini saqlab qolish uchun qo'riqxonada uchta qo'ra qurilgan. Ularning har birida 6 kishi ishlaydi. Qo'ralarda hammasi bo'lib necha kishi ishlaydi?
- b) Uchta qo'raning har birida 5 tadan bug'u bolasi dunyoga keldi. Qo'riqxonada hammasi bo'lib nechta bug'u bolasi dunyoga kelgan?
- d) Qo'ralarning birortasida ham kasal jonivorlar yo'q. Qo'ralarda hammasi bo'lib nechta kasal jonivor bor?

2. Ko'paytirish nimani anglatishini yodga oling. Hisoblang va xulosa chiqaring.

$$0 \cdot 3$$

$$0 \cdot 5$$

$$7 \cdot 0$$

$$6 \cdot 0$$



Istalgan sonni nolga ko'paytirganda, nol hosil bo'ladi.

$$a \cdot 0 = 0 \cdot a = 0$$

3. Sanjar, Mahmud va Karim olma terib, ularni teng bo'lib olishni xohlashdi. Agar ular 18 ta olma tergan bo'lsalar, har bir bolaga nechtdan olma tegadi? $0 : 3$ ifoda nimani anglatishi mumkinligini tushuntiring.



4. O'zingiz masala tuzing va uni ifodalar bilan yeching.

$0 : 4$

$0 \cdot 5$

$7 \cdot 0$



Nolni istalgan songa bo'lganda, nol hosil bo'ladi.

$0 : a = 0$



5. Buxoro bug'ulari qo'riqxonasiga 50 qop jelud keltirildi. Ertalab bug'ularga 5 qop, kechqurun ham shuncha jelud berildi. Agar har kuni bir xil miqdorda jelud berilsa, bu oziqa bug'ularga necha kunga yetadi?



6. Qiymatlarni hisoblang, ularni o'sish tartibida joylashtiring va Buxoro bug'ulari yana boshqacha qanday atalishini bilib oling.

O $14 : 7 + 0 : 3$

N $(65 - 44) : 7$

G $5 \cdot 6 - 8 \cdot 3$


U $0 \cdot 5 + 4 \cdot 3$

L $(0 + 6) \cdot 3$

X $7 \cdot 7 - 6 \cdot 8$



7. Sxemani daftaringizga ko'chirib chizing va tushirib qoldirilgan ma'lumotlarni to'ldiring. Ko'chatzorda 139 gektar yer daraxtlar bilan band, butazorlar daraxtzordan 76 gektar kam yerni egallaydi. O'tloqzor esa butazordan 7 marta kam maydonni band etgan. Ko'chatzorning yuzi necha gektarga teng?



Mundarija

Muqaddima	3
117. Ko'paytirish xossalari.....	4
118. Ko'paytirish xossalari.....	6
119. Nolning xossalari.....	8
120. 1 ga ko'paytirish, 1 ga bo'lish.....	10
121. Ikki amalli ifodalar.....	12
122. Amallarning bajarilish tartibi.....	14
123. Amallarning bajarilish tartibi.....	16
124. Amallarning bajarilish tartibi.....	18
125. Amallarning bajarilish tartibi.....	20
126. Tenglamalar.....	22
127. Tenglamalar.....	24
128. Tenglamalar.....	26
129. Masalalar yechish.....	28
Yakuniy dars.....	30
130. 10 ga va 100 ga ko'paytirish hamda bo'lish.....	32
131. 10 ga va 100 ga ko'paytirish hamda bo'lish.....	34
132. Ming.....	36
133. Kilometr.....	38
134. Yaxlit sonlarni ko'paytirish.....	40
135. Yaxlit sonlarni ko'paytirish.....	42
136. Yaxlit sonlarni bo'lish.....	44
137. Yaxlit sonlarni bo'lish.....	46

138. Yig'indini songa ko'paytirish.....	48
139. Taqsimot xossasi.....	50
140. Taqsimot xossasi.....	52
141. Ikki xonali sonni ko'paytirish.....	54
142. Ikki xonali sonni ko'paytirish.....	56
143. Hajmli shakllar.....	58
144. Shakllarning hajmi.....	60
145. Aylana va doira.....	62
146. Aylana va doira.....	64
Yakuniy dars.....	66
147. Takrorlash.....	68
148. Takrorlash.....	70
149. Takrorlash.....	72
Yakuniy dars.....	74
Mantiqiy topshiriqlar.....	77

veb-saytimiz: Zokirjon.com

Zokirjon.com veb-sayti orqali o'zingiz uchun kerakli ma'lumotlarni yuklab oling.

Zokirjon Admin bilan

90-530-68-66, 91-397-77-37 nomerga

murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog'lanishingiz nza456 yoki nza445 izlab telegramdan yozishingiz so'raladi.

Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida javob beriladi

2-sinf matematika IV qism kitobini to'liq holda olish uchun telegramdan yozing.

Telegram kanalimiz:

[@Maktablar_uchun_hujjatlar](https://t.me/@Maktablar_uchun_hujjatlar)



DIQQAT!!!

Bu hujjatni hech kimga tarqatmaslik sharti bilan olishingiz mumkin.

Sizga bu **OMONAT qilib beriladi.**

To'liq holda olganingizdan so'ng:

Faqat o'zingiz uchun foydalaning.

Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.

Internet veb-saytlarga joylamang.

Telegram orqali kanal va gruppalarga tarqatmang.

OMONATGA HIYONAT

QILMANG.